MAXSARNING MILYUTINSKIY-114 NAVINING HOSILDORLIGIGA FOSFORLI O‘G‘ITLARNI TA’SIRI

UDK: 661.725.68:631.811.2

S.G'.Qadamova mustaqil tadqikotchi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, *Urganch*

I.I.Abitov, PhD dotsenti ilmiy rahbar

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, *Navoiy*

Annotatsiya: Maqolada, Xorazm viloyating o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida Milyutinskiy-114 naviga fosforli o‘g‘itlarini ta’siri keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *tuproq, maxsar, nav, savatcha, 1000 dona urug‘ vazni, hosildorlik.*

Аннотатция: В статье приведено влияния фосфорных удобрений при посеве сорта сафлор Милютинский-114 в условиях среднезасоленных почв Хорезмской области.

Ключевые слова: почва, сафлор сорт, корзинка, масса 1000 штук семян, урожайность.

Annotation: The article presents the influence of phosphorus fertilizers on the cultivation of the Milyutinsky-114 safflower variety in the conditions of moderately saline soils in the Khorezm region.

Key words: soil, safflower variety, basket, weight of 1000 seeds, yield.

Maxsar madaniy o‘simlik sifatida O‘rta Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlarida, Misr va Habashistondan Hindistongacha, jumladan, Afg‘oniston, Turkiston, Kavkazorti, Kichik Osiyo hamda Suriya va Falastinda ma’lum. Janubiy Yevropaga maxsarni 1551 yilda Misrdan olib kelingan [1].

«Kamishinskoe OPX» MChJ dalalarida 2016 yilda «Avibif» va «Ribav-ekstra» o‘sish regulyatorlari tadqiqot etildi. Tadqiqot o‘tkazilgan tuproq kashtan, qumoq bo‘lib, tarkibidagi gumus miqdori 1,5-2,0% ni tashkil etadi. Ekish vaqtida qatorlarga 20 kg/ga miqdorida ammofos o‘g‘iti solindi. Biopreparatlar, shuningdek,

mikroelementlar va KAS o‘g‘iti maxsarning vegetatsiya davrida qo‘llanildi. Biopreparatlar qo‘llanilganda maxsar urug‘i hosildorligining oshishi, shuningdek, kasalliklarni (ildiz chirishi, zang, un-shudring) bostirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. O‘rganilayotgan ekinning vegetatsiya davrida gumin kislotalari, mikroelementlar va KAS o‘g‘itidan foydalanish o‘simliklarning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, maxsar urug‘ining maksimal darajada ko‘p olinishini ta’minladi. «Avibif» o‘sish regulyatoridan foydalanilganda hosildorlik 3,89 s/ga, «Ribav-ekstra» bilan esa 4,66 s/ga ortgan [2].

O‘simliklar tarkibida 1-3% miqdorida azot mavjud bo‘lib, u miqdor jihatidan uglerod, vodorod va kisloroddan kam bo‘lsa-da, turli qishloq xo‘jaligi ekinlarining past hosildorligi bo‘lishi, ko‘pincha uning yetishmasligiga bog‘liq [3].

Ob-havosi yumshoqroq bo‘lgan janubiy Italiyada kuzda ekilgan maxsar bahorda ekilganiga qaraganda ko‘proq hosil berishi aniqlandi [4].

Azot va fosfor maxsarning o‘sishi va rivojlanishi uchun asosiy ozuqa moddasi hisoblanadi, shuning uchun ularning me’yorlarini optimallashtirish maxsar urug‘i hosildorligini va tarkibidagi moy miqdorini sezilarli darajada oshirishi mumkin [5].

Tadqiqotning ob’ekti va usullari. Xorazm viloyating o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida, maxsarni Milyutinskiy-114 navi, fosforli o‘g‘itlar me’yorlari olingan.

Dala tajribalari joylashtirish, hisoblash va kuzatuvlar quyidagi uslubiy qo‘llanmalar asosida amalga oshirilgan: “Dala tajribalarni o‘tkazish uslublari”, “Методика Государственного сорта испытания селскохозяйственных культур”. Tajribadan olingan natijalar Microsoft Excel dasturi hamda B.A. Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmasi asosida matematik-statistik tahlil uslublardan foydalanildi.

Ilmiy tadqiqotlar 2025 yillarda Xorazm viloyating Urganch tumanida joylashgan “Jumanzar Boynazar” fermer xo‘jaligida olib borilgan.

Tajriba dalasi tuproq tarkibining 0-30 va 30-50 sm qatlam qalinligidagi chirindi miqdori 1,010-0,950 % ni, umumiy shakldagi azot miqdorlari tegishli

ravishda 0,120-0,160 % ni, umumiy shakldagi fosfor miqdori 0,152-0,170 % ni tashkil etdi.

Tajriba 12 ta variant, 3 qaytariq, maydonchalar yuzasi 42,0 m^2, joylashi uchta yarusda, eni 2,8 m, uzunlik 15 m tashkil etgan. Har bir maydonchadan hisobli o‘simliklar 25 donani tashkil qilgan.

Asosiy ekinda maxsarning Milyutinskiy-114 navi ekildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Olib borilgan kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, maxsarning mahsuldorlik elementlari ko‘rsatkichlardan, fosforli o‘g‘itlar qo‘lanilgan variantda evaziga bir o‘simlikdagi savatcha soni 6,1-6,3 donagacha ortdi. Bir o‘simlikdagi urug‘lar soni, bir dona urug‘ vazni va 1000 dona urug‘ining vazni 190-195 dona va bir o‘simlikdagi urug‘ vazni 7,3-7,6 grammni tashkil etdi.

Jumladan, maxsarning hosildorligi fosforli o‘g‘itlar qo‘llanilgan variantlar nazoratga nisbatan, 1,5-3,0 s/ga ortkanligi aniqlandi.

XULOSALAR

Olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyating o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida fosforli o‘g‘itlarni qo‘llash orqali bir o‘simlikdagi savatcha soni va hosildorligiga ta’sir qilishi ma’lum bo‘ldi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Беляков, А.М. Сафлор сорт Камышинский 73//Кормопроизводство, 2005. № 11. – 2 с.

2. Игольникова, Л.В., Игольников С.А. Применение регуляторов роста на посевах сафлора в ООО «Камышинское ОПХ»// Фермер. Поволжье. – 2018. - №2 (67). – С. 48-51.

3. Лебедев, С.И. Физиология растений //– М.: Агропомиздат, 1988. – 544 с.

4. Corleto A., Cazzato E., Annese V. Potential yield of fall and spring-sown safflower as compared to sunflower, durum wheat and barley: 5th International Safflower Conference.– Williston, Sidney, USA, 2001, p. 191–196.

5. Henke J., Breustedt G., Sieling K., Kage H. Impact of uncertainty on the optimum nitrogen fertilization rate and agronomic, ecological and economic factors in an oilseed rape based crop rotation // The Journal of Agricultural Science.– 2007, vol. 5, p. 455–468